

TOSHKENT SHAHRI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 107 661,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 10,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 116,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 19,0 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



110,2 %

107 661,5 mlrd.
so'm



116,4 %

19,0 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	83 919,8	107 661,5	110,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	75 990,6	97 086,8	110,3
mahsulotlarga sof soliqlar	7 929,2	10 574,7	110,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	75 990,6	97 086,8	110,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	28 745,6	36 730,9	109,7
sanoat	21 716,8	28 770,0	109,6
qurilish	7 028,8	7 960,9	110,0
xizmatlar	47 245,0	60 355,9	110,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 498,8	14 747,2	107,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	11 618,3	16 051,3	121,0
boshqa xizmat tarmoqlari	23 127,9	29 557,4	107,1

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 35 206,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,6	90,2
mahsulotlarga sof soliqlar	9,4	9,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	37,8	37,8
sanoat	28,6	29,6
qurilish	9,2	8,2
xizmatlar	62,2	62,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,4	15,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	15,3	16,5
boshqa xizmat tarmoqlari	30,5	30,5

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,8 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 29,6 % ni, qurilish 8,2 % ni va xizmatlar sohasi 62,2 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 2,5 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,0 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 7,0 f.p.) ijobiylissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,9 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



10,2 %

Qurilish



0,8 %

Mahsulotlarga sof soliqlar



0,9 %

Sanoat



2,5 %

Xizmatlar



6,0 %

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 109,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 29,6%), qurilishda – 110,0 % (8,2 %), xizmatlar sohasida – 110,6 % ni (62,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,3 % (15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,0 % (16,5%), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,1% dan (30,5 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 116,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 120,9 % va xizmatlarda – 115,5 % qayd etildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 47 015,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 38 596,8 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 48,4 % ni 2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 50,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

38 596,8

50,8 %

2024- yil

47 015,5

48,4 %

